



**“Eko-innovation - 2025” ekologik muammolar yechimiga bag‘ishlangan
innovatsion ishlanmalar va loyihalar ko‘rgazmasini tashkil etish va o‘tkazish
to‘g‘risidagi**

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom oliy ta'lim tashkilotlarining talabalari o'rtasida “Eko-innovation – 2025” ekologik muammolar yechimiga bag‘ishlangan innovatsion ishlanmalar va loyihalar ko‘rgazmasini (keyingi o‘rinlarda – Ko‘rgazma) tashkil etish hamda ishtirokchilarni rag‘batlantirish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Ko‘rgazma 2025-yilning sentabr oyida qishloq xo‘jaligi, texnika, ekologiya yo‘nalishlari mavjud oliy ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladi.

3. Ko‘rgazma oliy ta'lim tashkilotlari talabalari orasida ekologik muammolarni innovatsion yechimlar orqali hal etishga qaratilgan loyihalar va ishlanmalarni taqdim etish, targ‘ib qilish va qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etiladi.

4. Ko‘rgazma innovatsion g‘oyalarni aniqlash, ilg‘or tajribalarni o‘rganish, yosh ixtirochilarni rag‘batlantirish va ekologik madaniyatni oshirishga xizmat qiladi.

5. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

Ko‘rgazma – Oliy ta'lim tashkilotlari talabalari tomonidan ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan innovatsion ishlanma va loyihalarning ommaviy taqdimoti, baholanishi va targ‘ib qilinishi jarayonidir.

Ishtirokchi – Ko‘rgazmada o‘z innovatsion ishlanmasi yoki loyihasi bilan qatnashayotgan oliy ta'lim tashkilotining bakalavriat, magistratura yoki doktorantura bosqichi talabasi (yakka tartibda yoki jamoa a‘zosi sifatida).

Ekspertlar guruhi – Tegishli soha mutaxassislaridan tashkil topgan, ko‘rgazmadagi loyihalarni baholovchi va g‘oliblarni aniqlovchi mustaqil baholovchilar guruhi.

Taqdimot – Loyihani ko‘rgazma davomida ishtirokchilar tomonidan og‘zaki, yozma yoki texnik vositalar orqali tanishtirish, loyihaning maqsadi, natijalari va foydasini tushuntirish jarayoni.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari – Atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, doimiy ravishda tabiiy ravishda yangilanib turuvchi energiya manbalari (quyosh, shamol, geotermal, biomassa va boshqalar).

2-bob. Ko‘rgazmada namoyish etiladigan innovatsion ishlanmalar, loyihalar hamda ishtirokchilarga qo‘yiladigan umumiy talablar

6. Ko‘rgazmada namoyish etiladigan innovatsion ishlanmalar va loyihalar quyidagi yo‘nalishlarda bo‘lishi talab etiladi:

a) Atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurash, chiqindilarni qayta ishlash va kamaytirish:

havo, suv va tuproq ifloslanishini kamaytirish bo‘yicha innovatsion texnologiyalar;

tabiiy resurslardan samarali foydalanish usullari;

chiqindilarni saralash, qayta ishlash va ularni energiyaga aylantirish innovatsiyalari;

atmosfera chiqariladigan issiqxona gazlari (ayniqsa karbonat angidrid) miqdorini kamaytirishga qaratilgan innovatsion yondashuv va texnologiya.

b) Qayta tiklanuvchi energiya manbalari:

quyosh, shamol, bioyoqilg‘i va boshqa ekologik toza energiya manbalarini rivojlantirish;

energiya tejamkor texnologiyalar va qurilmalar yaratish.

c) Innovatsion ekologik texnologiyalar va qurilmalar:

Atrof-muhitni tozalashga mo‘ljallangan robotlar, sensorlar va boshqa qurilmalar;

Mobil ilovalar, onlayn platformalar orqali ekologik monitoring va nazorat vositalari.

7. Ko‘rgazmada namoyish etiladigan innovatsion ishlanmalar va loyihalarga qo‘yiladigan umumiy talablar:

ishlanma va loyihalar ekologik muammoni hal qilishga qaratilgan bo‘lishi lozim;

ishlanma va loyihalar innovatsion yechimlar taklif qilishi kerak;

yangi texnologiyalar orqali mavjud ekologik muammolarni samarali hal qilishni ko‘zda tutishi kerak;

ishlanma va loyihalar real hayotda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan, amaliy yechimlar taklif qilishi zarur;

ishlanma va loyihalarning iqtisodiy samaradorligi, texnik va iqtisodiy jihatlari, ekologik foydasi baholanishi kerak;

ishlanma va loyihalarda texnik prototip, model, sanoat namunasi yoki loyiha natijalarini ko'rsatuvchi namunalar bo'lishi kerak.

ishlanma va loyihalarning ijtimoiy va ekologik jihatlari aniq belgilab qo'yilishi kerak;

ishlanma va loyihalarning atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga, energiya sarfini optimallashtirishga yoki resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan bo'lishi lozim;

ishlanma va loyihalarning rasmiy hujjatlar (texnik hujjatlar, grafiklar, hisob-kitoblar, taqdimot materiallari) bilan taqdim etilishi kerak.

Har bir loyiha va ishlanma original bo'lishi zarur. Plagiat yoki boshqa loyihalardan nusxa olish man etiladi.

8. Ko'rgazma ishtirokchilariga qo'yiladigan umumiy talablar:

Har bir ishtirokchi yoki jamoa faqat bitta loyiha bilan qatnashishi mumkin;

Jamoalar 2-3 kishidan iborat bo'lishi mumkin. Jamoa tarkibida ixtisoslashgan sohalar bo'yicha bilim va tajribaga ega talabalar ishtirok etishi mumkin;

Ishtirokchilarning yoshi 18-35 yosh oralig'ida bo'lishi zarur.

3-bob. Ko'rgazmani tashkil etish va o'tkazish tartibi

9. 2025-yilning sentabr oyi oliy ta'lim tashkilotlarida "Ekologik innovatsiyalar va ekologik madaniyat oyligi" (keyingi o'rinlarda – Ekologiya oyligi) etib belgilanadi.

10. Ekologiya oyligi doirasida oliy ta'lim tashkilotlarida ekologik madaniyat yo'nalishida targ'ibot ishlari, ekologik volontyorlik faoliyatlari, ekologik muammolar yechimiga bag'ishlangan innovatsion ishlanmalar va loyihalar ko'rgazmalari, ekofaollar bilan uchrashuvlar, davra suxbatlari, master-klasslar, ijtimoiy tarmoqlarda turli chellenjlar va targ'ibot ishlari tashkil etiladi.

11. Ekologiya oyligining doirasida qishloq xo'jaligi, texnika, ekologiya yo'nalishlari mavjud oliy ta'lim tashkilotida "Eko-innovation – 2025" ekologik muammolar yechimiga bag'ishlangan innovatsion ishlanmalar va loyihalar ko'rgazmasi tashkil etiladi.

12. Ko'rgazma yakunlari bo'yicha ma'lumotlar (*ko'rgazmada ishtirok etgan loyihalar, g'olib deb topilgan loyihalar*) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga muvofiqlashtirish uchun taqdim etiladi.

13. Ko'rgazmada ishtirok etish uchun arizalar ko'rgazma boshlanadigan kundan kamida 20 kun oldin oliy ta'lim tashkilotlariga taqdim etilishi lozim.

Ariza bilan birga loyiha tavsifi, rasmlari, videolari, o'lchami, taqdimot materiallari va zarur texnik hujjatlar ham topshirilishi kerak.

Belgilangan muddatdan kechiktirib topshirilgan arizalar ko'rib chiqilmaydi.

14. Ko'rgazmada ishtirok etayotgan ishlanma va loyihalar mazkur nizomning 6-bandida ko'rsatilgan 3 ta asosiy yo'nalishga bo'lingan holda joylashtiriladi.

4-bob. Ko'rgazmaga kelib tushgan ishlanma va loyihalarni ko'rib chiqish, baholash va g'oliblarni aniqlash tartibi

15. Ko'rgazmada davomida ishlanma va loyihalar ishtirokchilar tomonidan maqsadi, dolzarbligi, yangiligi va natijalari yuzasidan taqdimot qilinadi.

16. Taqdimot asosida har bir ishlanma va loyiha Ekspertlar guruhi tomonidan mazkur nizomning 1-ilovasida ko'rsatilgan baholash mezonlari asosida baholanadi.

17. Ekspertlar guruhi a'zolari har bir loyiha va ishlanmani baholash mezonlariga asosan 100 ballik tizimdan foydalangan holda baholaydi, bunda 0 ball eng past baho va 100 ball eng yuqori baho hisoblanadi. Ekspertlar guruhi a'zolarining baholari yig'ilish bayonnomasida qayd etiladi.

18. Ekspertlar guruhi tomonidan baholangan loyiha va ishlanmalarning yakuniy ballari Ekspertlar guruh a'zolari ballarining o'rtacha arifmetik qiymati bilan belgilanadi.

19. Ikki yoki undan ortiq ishtirokchilarning yakuniy ballari bir xil bo'lgan hollarda g'oliblar Ekspertlar guruhi a'zolari tomonidan ovoz berish yo'li bilan aniqlanadi.

20. Ekspertlar guruhi tomonidan qabul qilingan qarorlar bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

21. Ko'rgazmada mazkur nizomning 6-bandida ko'rsatilgan 3 ta asosiy yo'nalish bo'yicha birinchi, ikkinchi va uchinchi o'rin, jami 9 ta nafar g'oliblar aniqlanadi.

22. Ekspertlar guruhi baholariga asosan yakuniy ballari eng yuqori hisoblangan loyiha va ishlanmalar ro'yxati shakllantiriladi hamda g'oliblar ro'yxati tasdiqlanadi.

23. Ko'rgazma g'oliblari tashkilotchilar tomonidan e'lon qilinadi.

24. Ko'rgazmada ishtirok etayotgan loyihalar va ishlanmalar orasida tashkilotchilar va homiylar tashabbuslari asosida turli nominatsiyalar bo'yicha g'oliblar ham aniqlanishi mumkin.

4-bob. Ko'rgazmani tashkil etish, o'tkazish va g'oliblarni taqdirlash bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish tartibi

25. Ko'rgazmaning 3 ta asosiy yo'nalish bo'yicha g'oliblar quyidagi tartibda:

birinchi o'rinni qo'lga kiritgan ishlanmalar va loyihalar mualliflari 6 million so'm;

ikkinchi o'rinni qo'lga kiritgan ishlanmalar va loyihalar mualliflari 4 million so'm;

uchinchi o'rinni qo'lga kiritgan ishlanmalar va loyihalar mualliflari 2 million so'm miqdorida bir martalik pul mukofotlari bilan rag'batlantiriladi.

26. Ko'rgazmani tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq quyidagi xarajatlar Oliy ta'lim tashkilotlari mablag'lari hisobidan qoplanadi:

Ko'rgazma o'tkaziladigan bino va joylarni tayyorlash xarajatlari;

Ishtirokchilar uchun tarqatma materiallar va uniformalar tashkil qilish xarajatlari;

G'oliblar va faol ishtirokchilarni taqdirlash bilan bog'liq xarajatlar.

27. Ko'rgazma g'oliblarini rag'batlantirish bilan bog'liq mablag'lar g'oliblarga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab o'n kun ichida beriladi.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

28. Ko'rgazmada ishtirok etish ishtirokchilarning ushbu Nizomda belgilangan qoidalarga va talablarga to'liq roziligini anglatadi. Agar ishtirokchi ushbu Nizomda belgilangan qoidalarini buzsa yoki ularni bajarmasa, u Ko'rgazmada ishtirok etish huquqidan mahrum bo'ladi.

29. Ekspertlar guruhining yakuniy natijalar yuzasidan qabul qilingan qarorlari bo'yicha manfaatdor shaxslar tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

30. Tanlovni o'tkazish jarayonlari bo'yicha kelib chiqadigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

31. Mazkur nizomda tartibga solinmagan yoki tegishli o'zgartirishlar kiritish zarurati yuzaga kelgan hollarda oliy ta'lim tashkiloti rektori tomonidan tegishli qaror qabul qilinadi.

32. Ko'rgazma oliy ta'lim tashkilotlarida yuqori saviyada tashkil etilgan hamda belgilangan miqdorda loyihalar ishtirok etgan taqdirda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tashabbusi bilan Toshkent shahrida Ko'rgazmaning Respublika bosqichi tashkil etilishi mumkin.

33. Ushbu nizom talablarini buzganlikda aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

“Eko-innovation - 2025” ekologik muammolar yechimiga bag‘ishlangan innovatsion ishlanmalar va loyihalar ko‘rgazmasini o‘tkazish to‘g‘risidagi nizomga ilova

“Eko-innovation - 2025” ekologik muammolar yechimiga bag‘ishlangan innovatsion ishlanmalar va loyihalar ko‘rgazmasida ishtirok etayotgan loyiha va ishlanmalarni baholash mezonlari

1. Atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurash, chiqindilarni qayta ishlash va kamaytirish yo‘nalishi uchun baholash mezonlari:

T/r	Baholash mezonlari	Maksimal ball
1.	Atrof-muhitni muhofaza qilishdagi samaradorlik	20 ball
2.	Tabiiy resurslardan foydalanishda innovatsion yondashuv	20 ball
3.	Ilmiy va texnologik asoslanganlik darajasi	20 ball
4.	Loyiha prototipi yoki modelining holati va tayyorlik darajasi	20 ball
5.	Loyihaning amaliyotda qo‘llanish imkoniyati	20 ball
Jami:		100 ball

2. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari yo‘nalishi uchun baholash mezonlari:

T/r	Baholash mezonlari	Maksimal ball
1.	Yaratilgan texnologiyaning ekologik tozaligi va samaradorligi	25 ball
2.	Energiyani tejovchi xususiyatlar va rentabellik	20 ball
3.	Innovatsionlik darajasi (yangi texnologiya yoki yechim)	20 ball
4.	Loyiha prototipi yoki modelining holati va tayyorlik darajasi	15 ball
5.	Loyihaning ishlab chiqarishga joriy etish imkoniyati	20 ball
Jami:		100 ball

3. Innovatsion ekologik texnologiyalar va qurilmalar yo‘nalishi uchun baholash mezonlari:

T/r	Baholash mezonlari	Maksimal ball
1.	Innovatsion texnologiyaning ekologik samaradorligi	25 ball
2.	Dolzarbligi va ekologik yo‘nalishga mosligi	20 ball
3.	Innovatsion yondashuv (ilg‘or usul yoki texnologiya)	20 ball
4.	Loyiha prototipi yoki modelining holati va tayyorlik darajasi	15 ball
5.	Amaliyotga tadbiq qilish imkoniyati	20 ball
Jami:		100 ball